

---

## **YANGI YIL BAYRAMI ARAFASIDA 550 DAN ZIYOD EHTIYOJMAND OILAGA SAXOVAT YORDAMI KO'RSATILDI**

Yangi yil bayrami arafasida Toshloq tumanida kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, bemorlar holidan xabar olinib, ularga moddiy ko'mak berilmoxda.

Bayram kunlarida ehtiyojmand oilalarga quvonch ulashish maqsadida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan mahallalarda istiqomat qilayotgan ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga 10 turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

Aholi bayram kunlarida bunday e'tibor va g'amxo'rlikdan mamnun bo'lib, minnatdorlik bildirdilar.

2023-12-28 16:14:59